G’o’zaning yangi istiqbolli “Xurma” navi yaratildi

O’zR FA Xorazm Ma’mun akademiyasi olimlari tomonidan g’o’zaning Qirg’iz-3 x AN-510 duragaylarini chatishtirish natijasida yangi istiqbolli “Xurma” navi yaratildi va O’zR Intellektual mulk agenligi patenti olindi.

Ushbu nav Xorazm viloyatining ekstremal (sho’rlangan tuproq, mineralizatsiyaga uchragan yer osti suvlari, suv tanqisligi, o’ta yuqori havo harorati) sharoitlariga moslashganligi bilan ajralib turadi. Mazkur nav IV - tipga ega bo’lib, tekstilbobligi bilan jahon standartlari talablariga javob beradi.

“Xurma” navining hosildorligi nazorat navga nisbatan 3 – 3,5 s/ga yuqoriligi va tola sifati yaxshiligi bilan muhimdir.